

ZAMONAVIY TARBIYACHI FASILITATOR

*Avezova Rohila Ruzimboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası katta o‘qituvchisi
Fayzullayeva Niginabonu
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14575981>*

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim sharoitida maktabgacha ta’lim yp’nalishi talabalarida fasilitator sifatlarini shakllantirish muhim bo’lmoqda. Maqolada fasilitator sifatlarini shakllantirishda bir nechta sifatlar va ularga xos bo’lgan jihatlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiyachi, fasilitator, kreativ fikrlash, individual yondashuv xulosa chiqarish, tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari.

Аннотация. В современных образовательных условиях важно формировать качества фасилитатора у студентов дошкольного образования. В статье приведен анализ нескольких качеств в формировании качеств фасилитатора и характерных для них аспектов.

Ключевые слова: воспитатель, фасилитатор, креативное мышление, индивидуальный подход, критическое мышление, навыки самооценки

Annotation. In the context of modern education, the development of facilitator qualities in preschool students is becoming increasingly important. The article presents an analysis of several qualities and their characteristics in the formation of facilitator qualities.

Keywords: educator, facilitator, creative thinking, individual approach, critical thinking, self-assessment skills

Kirish.

Zamonaviy ta'lim jarayoni talabalarga nafaqat bilim berish, balki ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, kreativ yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda tarbiyachi-fasilitator roli dolzarb ahamiyatga ega. Tarbiyachi fasilitator bolajonlarning shaxsiy yondashuvini qo‘llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini ochib berishi va mustaqil faoliyatni tashkil etishda yordam beradi.

Fasilitator - (ingliz tilida facilitator, latinchа facilis–yengil, qulay) - guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini

topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi va to'la amalga oshiradi¹.

Bugungi kun pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalana bilishi lozim. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi². Buning uchun albatta pedagoglar bolaning rivojlanish xususiyatlarini bilishi, uning his-tuyg'ularini tushunishi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlashi orqali ta'lim-tarbiya berishi muhimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Fasilitatsiya –pedagogik jarayonni tashkil qilishga qaratilgan maxsus boshqaruv uslubidir. Oddiy qilib aytganda, fasilitatsiya – bu jarayon va harakat usuli bo'lib, samarali guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tashkil etish, ularni hamkorlikka yo'naltirish va birgalikdagi faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish vositasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat³.”, -deb ta'kidlashi bejiz emasdir.

Fasilitator guruhda qulay psixologik muhitni yaratadi va faoliyatni samarali bo'lishiga yordam beradi. Ushbu tushuncha mumtoz psixolog Karl Rodgers tomonidan kiritilgan bo'lib, ingliz zabon mamlakatlarining ta'lim muassasalarida keng foydalaniladi. 1989-yildan buyon Xalqaro bosh fasilitatorlar assotsiatsiyasi (The International Association of Facilitators) faoliyat yuritib kelmoqda.⁴

Natijalar va tahlil.

¹ Mamaraimova M. "Zamonaviy ta'limda fasilitator faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari" ilmiy maqola 10-b

² O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr T-2022 yil 8 -b

³ Ashurova Z.M. zamonaviy ta'lim- tarbiya jarayonida fasilitorning o'rni DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.39.60.035>

⁴ Ashurova Z.M. Zamonaviy ta'lim- tarbiya jarayonida fasilitorning o'rni DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.39.60.035>

Birinchi va eng muhim vazifasi tarbiyachi fasilitatorning— ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishdir. Bu esa quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- ✓ Tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash uchun diagnostik tadqiqotlar o'tkaziladi.

- ✓ Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va psixologik yondashuvlardan foydalaniladi.

- ✓ Har bir bolaga mos ta'lim uslublarini ishlab chiqish uchun individual yondashuv qo'llaniladi. Bu orqali tarbiyachi o'z faoliyatida ilmiy izlanishlarga asoslangan usullarni qo'llasa, ta'lim samaradorligi oshadi.

Ikkinchi vazifa bu -fasilitator bolalarga mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Bu quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- ✓ Tarbiyalanuvchilarning turli fikrlarni bildirishlari uchun erkinlik yaratiladi.

- ✓ Bolajonlar o'zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos kreativ loyihalarni amalga oshiradilar.

- ✓ Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolajonlar mustaqil ravishda muammolarni tahlil qiladi va yechim topadi.

Bu jarayon ta'limning faqat bilim beruvchi emas, balki mustaqil shaxsni shakllantiruvchi tizim ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchi vazifasi- bolajonlarning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashdir. Shu jumladan:

- ✓ Tarbiyalanuvchilarni yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga rag'batlantirish.

- ✓ Shaxsiy rivojlanish uchun treninglar va muhokamalar tashkil etish.

- ✓ O'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushuntirish va yo'naltirish.

To'rtinchi vazifasi -zamonaviy ta'limning amaliyotga asoslangan bo'lishidir. Tarbiyachi fasilitator amaliy mashg'ulotlar orqali bolajonlarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Hayotiy misollarga asoslangan mashg'ulotlar tashkil qilishdir. Bolalarni real vaziyatlarga tayyorlash uchun tajriba

va laboratoriya asosida mashg'ulotlari tashkil etishidadir. Ishbilarmonlik o'yinlari orqali muammoli vaziyatlar yaratilib, ularni yechish qobiliyati rivojlantirishdan iboratdir.

Bu vazifalarni bilish va qo'llash orqali tarbiyachi ta'lim samaradorligiga erishiladi. Tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kelgusida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish uchun olingan natijalar asosida xulosalar chiqaradi. Fasilitator faoliyatini yanada boyitish va ta'lim samaradorligini oshirish uchun yangi yondashuvlar va yangiliklar:

- Interaktiv ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar va onlayn testlardan foydalanib, ta'limni zamonaviylashtirish. O'quv jarayoniga o'yin elementlarini qo'shish orqali qiziqarli muhit yaratish va bolalarning ishtirokini oshirish.

- Bolalarga ekologik mas'uliyatni singdirish uchun ekologiya va tabiatni asrash bo'yicha maxsus loyihalar tashkil etish. Daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishlash, suvni tejash kabi faoliyatlar orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolajonlarda stressni kamaytirish va e'tiborini jamlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun metodikalarni o'rgatish. Hissiyotlarni aniqlash, boshqarish va empatiya ko'rsatish bo'yicha maxsus dasturlar joriy qilish.

- Turli madaniyat va millatlarning qadriyatlari bilan tanishtiruvchi tadbirlar va loyihalarni tashkil qilish. Bir nechta tilda o'quv materiallarini joriy etish orqali bolajonlarning global bilimlarini kengaytirish.

- Bolalarda ijodkorlik va ixtirochilik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi loyiha va mashg'ulotlar tashkil etish. Bolalarga kichik tadbirkorlik g'oyalarini yaratish va amalga oshirish uchun sharoit yaratish.

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarni jamoada ishlashga o'rgatish uchun kichik guruhlar tashkil qilish. Ijtimoiy yordam va jamiyatga foyda keltiruvchi loyihalarda ishtirok etish imkonini yaratish.

Ushbu yangiliklar orqali fasilitator nafaqat bolajonlarning bilim darajasini oshiradi, balki ularni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli shaxs sifatida

shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar ta'lim jarayonini boyitadi va tarbiyalanuvchilarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishni tezlashtiradi.

Xulosalar.

Yuqorida berilgan fikrlardan shuni xulosa qilish jarayonida tarbiyachi-fasilitatorning asosiy maqsadi ta'lim jarayonini shunday tashkil etishki, bu jarayon nafaqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi tizim sifatida ishlasin. Fasilitator faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlari ushbu maqsadga erishishda muhim ahamiyatga ega:

Diagnostik tadqiqotlar va individual yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish ta'lim samaradorligini oshiradi. Bolalarning o'z qiziqishlariga mos kreativ faoliyatlar orqali mustaqil fikr yuritish va qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi trening va muhokamalar bolalarda keng ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Hayotiy tajribalar va muammoli vaziyatlar orqali bolalarning bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi. Raqamli vositalar, ekologik mas'uliyatni rivojlantirish va innovatsion fikrlashga qaratilgan metodikalar ta'lim jarayonini boyitadi. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar ta'lim tizimini faqat nazariy bilimlar bilan cheklangan jarayon sifatida emas, balki har tomonlama rivojlantiruvchi va mustaqil shaxsni shakllantiruvchi tizim sifatida tasavvur qilishga imkon beradi.

Fasilitatorning vazifalari, yondashuvlari va metodlari mukammal tashkil etilsa, ta'lim samaradorligi oshadi, shuningdek, o'quvchilarning hayotiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mamaraimova M. "Zamonaviy ta'limda fasilitator faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari" ilmiy maqola 10-b

2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr t-2022 yil 8 -b

3. Ashurova Z.M. Zamonaviy ta'lim- tarbiya jarayonida fasilitatorning o'rni doi: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.39.60.035>

4.A. Avliyoxonov, M. To'rayev. "Zamonaviy pedagogika asoslari." Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2020.

4.Avezova .R.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiining boshqaruv kompetentligini takomillashtirishdagi kasbiy sifat larning ahamiyati. // INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY Ilmiy -nazariy va metodik jurnal 2024-yil, 4(2)-son 247-b

5.Avezova R.R. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish usullari. // TA'LIM. INSON. HAYOT Ilmiy jurnal December. 2023. ISSUE №1 O'ZBEKISTON 6 bet